

## AXBOROT MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH MASALALARI

**Xalikova Muxabbat Akbar qizi**

TDYU ARM axborot texnologiyalari bo'yicha yetakchi mutaxassis

**Sharipova Shamsiya Jahongir qizi**

TDYU ARM yetakchi mutaxassis

### ANNOTATSIYA

Zamonaviy jamiyatning farqli belgilaridan biri bu o'sib kelayotgan yosh avlodni tevarak atrofda bo'layotgan o'zgarishlarga doimiy moslashtirib borish hisoblanadi. Sivilizatsiyaning rivojlanishida uning asl mohiyatini oldin qanday bo'lganligi bilan taqqoslaymiz. Uning o'ziga xoslik belgilari uzluksizlik, shiddatlilik, global xarakterlilikdir. Axborotlashtirish asrida axborot xurujining avj olishi ayniqsa yoshlarda axborot olish madaniyati, o'qish madaniyatini shakllashtirishni taqozo etadi. Bu axborotlashtirish asrida yangi iqtisod, yangi siyosat, yangi jamiyat yuzaga keladi. Yangi jamiyatda insondan faqat aql kuchi talab etiladi. Bunday jamiyatda mehnat xarakterining o'zi o'zgaradi: ishlab chiqarishning barcha sohalarida aqliy mehnat fizik mehnatni siqib chiqaradi.

**Kalit so'zlar:** Axborot olish madaniyati, O'qish madaniyati, Kompyuter savodxonligi.

### ABSTRACT

One of the distinguishing features of modern society is the constant adaptation of the growing young generation to the changes happening around them. In the development of civilization, we compare its true nature with what it was before. Its distinctive features are continuity, intensity, global character. In the age of information, the growth of information attack requires the formation of the culture of receiving information and the culture of reading, especially among young people. In this information age, a new economy, a new politics, a new society have emerged. In the new society, only the power of the mind is required of a person. In such a society, the very nature of work changes: mental work replaces physical work in all areas of production.

**Keywords:** Culture of obtaining information, Culture of study, Computer literacy.

Bugungi kunda axborot olish madaniyatini shakllantirish eng dolzarb bo‘lgan masalalardan biri hisoblanadi, chunki, axborot oqimining tezlikda o‘sib borishi, taqdim etilayotgan axborotlar orasidan kerakli, zaruriy va foydalilarini ajratib olish murakkab jarayondir. Buning uchun har bir shaxs mustaqil fikrga ega, dunyoqarashi keng axborotlar uyumidan o‘zi uchun keraklilagini ajratib olish salohiyatiga ega bo‘lishi lozim. Axborot olish madaniyatini shakllantirishning bir nechta bosqichlari mavjud bo‘lib ular orasida eng muhim bu kishilar orasida o‘qish madaniyatini yuksaltirishdir.

Aholisi muntazam ravishda o‘qish, mutolaa qilish bilan mashg‘ul bo‘lgan jamiyat poydevori mustahkam bo‘lishiga jahon mamlakatlari orasida o‘qish madaniyati darajasini tahlil qilish chog‘ida yana bir bor amin bo‘ldim. Bir necha yillar insonlar orasida o‘qishga bo‘lgan e’tiborning pasayganligini va bu rivojlangan davlatlarni ham chetlab o‘tmaganligini bildim. O‘qish madaniyatini shakllantirish odamlar orasida jinoyatchilikni, beparvolikni oldini oladi. Zamonaviy texnologiyalarining rivojlanishi o‘qishga bo‘lgan etiborni bir muncha pasaytirib yubordi. Davr talabini inobatga olgan holda axborot olish madaniyatining bir bo‘lagi bo‘lgan o‘qish madaniyatini ham zamonaviy ko‘rinishda targ‘ib etish maqsadga muvofiq. Buning eng samarali usuli bu multimedia vositalaridir. Multimediali dasturlar, vositalar bugungi kunda butun dunyo miqyosida jadal rivojlanmoqda va ularga bo‘lgan talab ham ortib borayapti. Buning asosiy sababi bu multimediali vositalarning e’tiborni jaib qiluvchi jihatlaridir. Axborot olish madaniyatini shakllantirishda multimediyali dasturlardan foydalanishnng samarasi yuqori. Unda tinglovchi bir vaqtning o‘zida ham eshitishi, ko‘zi bilan ko‘rishi, o‘zi xam dars davomida bevosita ishtirokchiga aylanib biron bir yangiliklar kiritishi mumkin. Axborot olish madaniyatini shakllantirish ishini kichik yoshdagি bolalar bilan boshlash kutilgan natijani beradi deb hisoblayman. Chunki bolalar ongi xali toza va unga qaysi tarafdan tarbiya bersang shu tarafdan rivojlanib kamolga yetadi. Biz ularga kichikliklaridan axborot bilan ishlashni o‘rgatib borsak, ularda axborot olish madaniyatini shakllantirsak, kelajakda ularda turli zararli axborotlarga qarshi imunitet paydo bo‘ladi. Bu esa eng zaruriy masalalardan biridir.

Bugun kompyuterlar, kompyuter tarmoqlari, ulkan hajmdagi axborot resurslaridan oqilona foydalanishda jamiyat va inson uchun axborot madaniyati fenomenining global ahamiyatini anglash talab etiladi. Axborot madaniyati fenomenining paydo bo‘lishining asosiy faktorlari bu axborotlashtirish asriga o‘tishning universal ijtimoiy muhim kategoriyalari, ya’ni axborot hajmining o‘sishi, jamiyatni axborotlashtirish, texnika va texnologiyaning rivojlanishi, axborot jamiyatining shakllanishi kabilar.

Multimediali dasturlar tayyorlash jarayoni qiyin jarayon, multimediali dasturlar esa qimmat bo‘lishi bilan birga ta’lim sifatini oshirishda katta ta’sir kuchiga ega. Axborot olish madaniyatini shakllantirishda multimediali vositalarning roli yuqori.

Ular qabul qilish tezligini oshiradi, mustaqil fikr yuritishga o‘rgatadi va foydalanuvchida interfaol qobilyatni shakllantiradi. Multimediali mutolaa orqali bilim olish sifati tezlikda shakllanadi va o‘quvchilarda olinayotgan axborotga nisbatan qiziqish samarasi keskin ortadi. Multimediali darsliklardan foydalanuvchi o‘qituvchilarning dars o‘tkazishlari uchun osonliklar va qulayliklar mavjud. An’anaviy ta’lim vositalaridan farqli o‘laroq media texnologiyalari sezilarli ravishda erta rivojlanishdagi imkoniyatlarini kengaytiradi, bolaning aqliy va ijodiy qobiliyatlarini muvafaqqiyatlari tarzda amalga oshirishda o‘z hissasini qo‘shadi. Nafaqat ularga tayyor kerakli ma’lumotlarni beradi, balki kerakli ma’lumotni o‘zlarini qidirib topishlariga undaydi. Media resurslardan foydalanish buyicha kerakli vazifa va ma’lumotlarni ko‘pgina saytlardan topish mumkin. Shu tarzda o‘rganish jarayoni faollashadi. Media ta’lim ushbu maksadga erishishning eng samarali uslublaridan biri. Media ta’lim pedagogik faoliyatning ideologiyasi sifatida ushbu vaziyatda umumta’lim bilim ko‘nikmalarini egallashning shakllanishida erishiladigan samaraning kafolati sifatida ahamiyat kasb etadi, shuningdek, ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchining axborot madaniyati ko‘nikmalarini shakllantirishida ham. Shu o‘rinda maktab kutubxonalarining ham o‘qish madaniyatini shakllantirishda va rivojlanirishda tasiri katta hisoblanadi. Kutubxonachining tashabbusi va e’tibori bilan kutubxonadan foydalanuvchini o‘quvchidan kitobxonga aylantirish mumkin. Kutubxonalarga jalb etishning bir qancha zamonaviy usullaridan, masalan, virtual kitob ko‘rgazmalari, kitobxonlar marofonlari, kitob auksionlari, kutubxonadan tashqaridagi o‘qishlardan foydalnish ijobiy natijani beradi. Axborot madaniyatini shakllantirishning eng samarali usullaridan yana biri bu yoshlar portalini yaratish hisoblanadi. Buning bir qancha sabablari mavjud yani, portal yaratilganda:

- ✓ Yoshlarga bag‘ishlangan manbalarni bir joyga to‘plash imkoniyati yaratiladi;
- ✓ Yoshlar o‘rtasida axborot qidiruvini amalga oshirish ko‘nikmasi shakllanadi;
- ✓ Turli manbalardan kerakli axborotlarni topish va ulardan foydalanish bilimi oshadi;

✓ Ota onalar uchun bexavotir manba hisoblanadi.

Axborot madaniyati - Mutolaa madaniyatning muhim belgilardan biri. Axborot madaniyati insonning mustaqil shaxs bo‘lib shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Doimiy mutolaa bilan band bo‘lgan shaxs fikr yurita oluvchi o‘z mustaqil fikriga ega bo‘lgan shaxsdir. Axborot oqimining tezlik bilan rivojlanishi bugungi kunda axborotlarni to‘g’ri saralashda qiyinchilik tug’dirmoqda. Texnika asrida texnologik vositalarning rivojlanishi butun dunyo bo‘yicha o‘qishga bo‘lgan ehtiyojni kamaytirdi.

«Axborot olish» atamasi ilk bor XX-asrning 70-yillarida paydo bo‘ldi; kutubxonachilar ushbu tushunchani rivojlanirish va ommaviylashtirish bo‘yicha

tashabbus ko'rsatdilar. Bu atama birinchi bor bibliograflar K.M. Voyxansk va B.A. Smirnovalarning «Kutubxonachilar va kitobxonlar axborot madaniyati xususida» [«Kutubxona va axborot», 1974 y.] va E.L. Shapironing «Axborot so'rovlarining noaniqliklarini kamaytirish yo'llari haqida» [“Ilmiy-texnik kutubxonalar» jurnali, 1975y.] nomli maqolalarida fanga olib kirildi. Axborot madaniyati quyidagilardan tashkil topadi.

- Kutubxona - bibliografiya savodxonligi
- O'qish madaniyati
- Kompyuter savodxonligi

Kutubxona-bibliografiya savodxonligi – kutubxona va axborot resurs markazining ma'lumot-bibliografiya fondi apparatini osonlik bilan yo'naltira olish ko'nikmasiga ega bo'lgan malakali foydalanuvchini tayyorlash uchun zarur.

Mutolaa madaniyati – nashr etilgan ishlarni to'laqonli tushunish va qabul etishda foydalanuvchi uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikma.

Kompyuter savodxonligi - kompyuter bo'yicha ko'nikmalarga ega bo'lish materialni tezkor va samarali shakllantirish qobiliyatini, ma'lumot qidirushi va ma'lumotni qayta ishslash bo'yicha salohiyatni rivojlantiradi va talab etadi.

Axborot madaniyati bu - axborot bilan maqsadni ko'zlagan xolda ishslash ko'nikmasiga ega bo'lish, shuningdek, axborotni foydalanish uchun ola bilish, kompyuter axborot texnologiyasini, yangi texnik vosita va uslublarini tahlil qilish va uzatish. Quyidagilar axborot olish madaniyatining asosiy belgilari:

Axborot olish madaniyati insonning turli ijodiy qobiliyatlari mahsuli bo'lib bu quyidagi aspektlarda namoyon bo'ladi:

- texnik vositalardan foydalanishda ma'lum bir ko'nikmalarda (Telefondan tortib shaxsiy kompyuter va kompyuter tarmoqlarigacha);
- asosini turli dasturiy mahsulotlar tashkil etuvchi kompyuter axborot texnologiyasi faoliyatidan foydalana bilish mahoratida;
- turli axborot bilan ishlay bilish faoliyatida;
- o'z ish faoliyati sohasida axborot oqimi xususiyatlari borasida tasavvurga ega bo'lishda.

Axborot olish madaniyatiga ega bo'lish - bu har bir inson o'zligini anglashida o'z o'rni va vazifasini bilishda katta ahamiyatga ega bo'lgan fazilatlarini keng ko'lamda ochib berishdagi jarayon. Ta'lim axborot olish madaniyatini shakillantirishda katta ahamiyatga ega bo'lib, ta'lim olish tizimidagi rivojlanish va har bir kishini samarali tarzda axborot va axborot vositalaridan foydalana bilishi jamiyat yuksalishiga sabab bo'ladi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. Kutubxona bibliografik klassifikatsiyasi: Kutubxonalar uohun jadvallar. nashr uchun mas'ul E.Yo'ldoshev; Tuz. I.E KattaxoJ aeva,Ivl.T. Azimov, M.Zoxidova.- Tuzatilgan, to'ldirilgan nashri.-T.: "Istiqlol", 2003.-504 b.
2. Maja Zumer. Guidelines for national Bibliographies in the Electronic AGE.- Mamatraimova X. Bibliografiya tarixi: "Bibliografiya nazariyasi va tarixi" fanidan o'quv qo'llanma.- T., 2008.- 82b.
3. Umarov A.A.O'zbekiston kutubxonachiligi bugungi holati muammolar va istiqbollar. "Central Asia 2002" "Fan, ta'lif, madaniyat va biznes sohalarida internet va kutubxona axborot resurslaridan foydalanish" ikkinchi xalqaro konferensiya materiallari.- Buxoro, 2002. - 1-5 b.
4. Shapironing E.L. «Axborot so'rovlaring noaniqliklarini kamaytirish yo'llari haqida» .-“Ilmiy-texnik kutubxonalar» jurnali, 1975y.